

## O‘QUVCHILARDA NOSTANDART TAFAKKUR TARZINI RIVOJLANTIRISHNING REFLEKSIV MEXANIZMLARI

**Raxmonova Gulchehra Salaydinovna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Shaxsda shakllanadigan nostandart tafakkur tarzi ijodiy jarayonning analogi emas, ammo ijodiy faoliyat nostandart tafakkur tarzisiz amalga oshmaydi. Maqolada o‘quvchilarda nostandart tafakkur tarzini rivojlantirishning refleksiv mexanizmlari va uni tavsiflanish masalalari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** tafakkur, nostandart tafakkur, fikrlash, kreativlik, ijodiy faoliyat, shaxs.

### ABSTRACT

A non-standard way of thinking formed in a person is not an analogue of the creative process, but creative activity cannot be realized without a non-standard way of thinking. The article analyzes the reflexive mechanisms of the development of non-standard thinking among students and the questions of its description.

**Key words:** thinking, non-standard thinking, creativity, creative activity, personality.

### KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimining vazifasi o‘quvchi shaxsida nostandart tafakkurni rivojlantirish orqali ularni ta'lim va shaxsiy hayoti bilan bog‘liq muammolarni ijodkorlik yo‘llaridan foydalangan holda optimistik nuqtai nazardan kelib chiqib yechim va muqobil yo‘llarini topish usullarini o‘zlashtirishga nazariy va amaliy jihatdan yo‘naltirishdan iborat. Shuningdek, har bir o‘quvchi shaxsida milliy va umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga oid kompetentlik elementlarini shakllantirgan holda o‘zini o‘zi rivojlantirish sifatlarini kreativlik asosida shakllantirish ta'lim tizimi oldidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ijodiy faoliyatda nostandart tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish omillari ko‘p jihatdan uning mexanizmlari va qonuniyatlarini psixologik va pedagogik jihatdan ilmiy o‘rganishga hamda uni muvofiqlashtiruvchi tizimga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan o‘quvchi shaxsida nostandart tafakkur tarzini rivojlantirish, tanqidiy nuqtai nazardan fikrlash, bilish va o‘zlashtirish jarayonini tahliliy o‘rganish muhim ahamiyatga egadir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mahalliy olimlardan M.Quronov, G.Aripova, B.Adizov, U.Inoyatov, U.Mahkamov, R.Safarova, B.Umarov, O.Jamoldinova, D.Ro‘ziyeva, B.Xodjayev, Ch.Shakirova, Sh.Shodmonova, E.Yuzlikayeva, N.M.Egamberdiyevlarning tadqiqot ishlarida yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish omillari, ularni ijodiy, kreativ, nostandart tafakkur tarziga o‘rgatishning o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

O‘quvchilarning intellektual kompetentligini rivojlantirishda ijodiy tafakkurning o‘rni, nostandart fikrlash shaxs ijtimoiy mavqeyini belgilovchi omil ekanligi, shaxsning ijodkorlik salohiyatida nostandart tafakkurning o‘rni, kreativ tafakkurning o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, o‘quvchining psixologik barqarorligini ta‘minlashda nostandart tafakkurning o‘rni kabi muammolar T.V.Ogorodova, L.Kananchuk, L.Adamyan, P.I.Pidaksistiy, Ya.A.Ponomarev, V.Лыsenko, Yu.Kraynova, S.Marchukova, S.Morozyuk, M.Mixaylova, V.Oparina, A.Rossoxin, N.Pavlyuchenkova, A.Rudakov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan Dj.Dyui, J.P.Guilford, I.Arshava, A.Yu.Xilman, X.Geyvin, S.A.Mednik, Ye.Pikard, S.Taylor, S.Maddi, K.Izard, V.Klochko, R.Sternberg, O.Osadko, N.Pil, K.Sternberg, K.Xorni, A.Xilmanlar nostandart tafakkurning psixologik-pedagogik xususiyatlari, o‘z-o‘zini anglash qobiliyati, kognitiv psixologiya va kreativlik munosabati, o‘quvchilardada nostandart tafakkurni shakllantirishning psixologik jihatlari o‘rganishgan.

## NATIJALAR

Tadqiqotchilar N.V.Kozlova va M.S.IIqeglova nostandart tafakkurni tushunish va baholashga qaratilgan kognitiv xatti-harakatlar natijasi sifatida baholaydi[2], A.G‘aniyev jamiyat rivoji uchun nostandart tafakkur qobiliyatiga ega yoshlarni tarbiyalash muhim ekanligini, professor U.Xo‘jamqulov “nostandart tafakkur kishilarning odatiy fikrlash tarziga nomuvofiq, g‘ayrioddiy fikrlashi, noodatiy usul va yo‘llar bilan xulosalar chiqarishi; vaziyatdan chiqishning hatto g‘ayritabiiy, ammo eng maqbul muqobillarini izlab topish, masalalar va hodisalarga nisbatan har doim ijodiy fikrlash orqali yondashish ko‘nikmasi” [6, 180] sifatida ta‘riflaydi.

## MUHOKAMA

O‘quvchida nostandart tafakkur rivojlangan va narsa-hodisalar xususida tanqidiy fikrlash qaror topgan bo‘lsa, u holatda o‘quvchi nazariy va amaliy bilimlarni o‘ziga xos jihatlari va xususiyatlarini o‘zlashtirishi osonlashadi, masalaning mohiyatini anglash jarayoni tezlashadi. Zero, masalaning mohiyatini anglamasdan turib nostandart tafakkur yuritib bo‘lmaydi.

Har qanday yangilik, kashfiyot bevosita nostandart tafakkur tarzi mahsuli hisoblanadi. Ta'lim tizimi o'quvchilarda mazkur tafakkur tarzini odatga aylantirish vazifasini o'z zimmasiga olsa, uning reflektiv mexanizmlarini yaratish borasidagi ilmiy gipoteza va farazlarni ilgari surish, uning metod va texnologiyalarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan vazifalar sirasiga kiradi.

O'quvchida shakllangan nostandart tafakkur mahsuldorligi va reflektivligini ijodiy yondashuv nuqtai nazaridan tasniflash, tipologiyasini tahlil qilish hamda mavjud muammolarni hal etish yo'llarini kategorial tahlil qilish, ijodiy izlanishning tarkibiy va funktsional mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosan diskursiv fikrlash jarayoni, tafakkur operatsiyalari (analiz-sintez) o'rtasidagi bog'lanishning muvofiqligi, fikrlashda idrok etish jarayoni faollashuvining ijodiy yondashuv samaradorligini ortishdagi roli, o'quvchi shaxsida ijodiy-reflektiv qobiliyatlarni shakllantirishda fundamental ijtimoiy-psixologik omil bo'lib xizmat qilishi talab etiladi.

Shu nuqtai nazardan, bizningcha, o'quvchilarda nostandart tafakkur tarzini rivojlantirishning reflektiv mexanizmlari quyidagi jihatlar bilan tavsiflanishi maqsadga muvofiq:

- o'zaro ta'sir doirasiga ega bo'lgan mantiqiy tushunchalar va shaxsni doimiy ijodiylikka yo'naltirish;
- mazmun va mantiq hamda aniq dalillarga asoslangan tanqidiy-tahliliy fikr yuritishga intilishni rag'batlantirish;
- mavjud narsa va hodisalar yuzasidan zaruriy axborot va ma'lumotlarni ob'ektiv yig'ish, analiz va sintez qilish ko'nikmasini shakllantirish;
- chuqur tahlil va bir nechta muqobil variantlar asosida aniq xulosa chiqarish hamda hal qiluvchi qaror qabul qilish kompetentligini shakllantirish;
- narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, o'xshashlik va farqlarni differentsial o'rganish, o'zaro aloqadorlikni tahlil etish hamda tushunish malakasini shakllantirish;
- o'quvchi shaxsida barqaror diskursiv fikrlash kompetentligini rivojlantirishi.

Tadqiqotchi V.V.Lutskovich ilmiy mulohazasiga ko'ra, "nostandart tafakkuri mahsuli bo'lgan tanqidiy fikr yuritish muammoni har tomonlama o'rganadigan va shaxs aqliy faoliyatning real voqelik qonunlariga muvofiqligini ta'minlaydigan ob'ektiv xususiyatga ega bo'lgan jarayondir"[3, 54]. Demak, tanqidiy fikrlash nostandart tafakkur mahsuli bo'lib, shaxsning individual aqliy salohiyatiga hayot mantig'i asosida baho va xulosa berish imkoniyatini taqdim etuvchi intellektual ruhiy jarayondir.

Tadqiqochi O.M.Semyonova nuqtai nazariga ko'ra nostandart tafakkur tanqidiy reflektiv xususiyatga ega bo'lib, mavjud faoliyatni tafakkur operatsiyalarini aks ettirishi bilan izohlanadi. Uning ilmiy mulohazasiga ko'ra, o'quvchi shaxsida to'g'ri xulosa chiqarishga olib keladigan fikrlash jarayonini shakllantirish pedagogik

yondashuv bilan qaror topadi, topshiriqlarni aniq belgilashda pedagogik asos va hodisalarni hisobga olish talab etiladi. Shuningdek, vaziyat va jarayonni baholash, ular xususida mulohaza yuritishning muayyan xususiyatlari, kognitiv jarayonlarning rivojlanganligi bilan asoslanib, tafakkur kengligi, chuqur mulohaza yuritish qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish, fikrlar ketma-ketligidagi mantiqiy izchillik hamda tanqidiy mulohaza bilan asoslashni talab qiladi.

Bizning nuqtai nazarimizcha tafakkurning divergen va konvergen operatsiyalari, fikrlash inertsia va labilligi, impulsiv va refleksiv hamda stereotipli fikrlash xususiyatlarini motivatsion qo'llab-quvvatlashni pedagogik-psixologik mexanizmlarini maktab ta'limi va oila tarbiyasiga olib kirish orqali o'quvchi shaxsida nostandart tafakkurni rivojlantirish yuqori samaradorlikka olib keladi.

O'quvchida nostandart tafakkurni rivojlantirish o'qituvchi faoliyatining refleksiv fikrlash salohiyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, baholash va mulohaza yuritish, chiqarilgan xulosalarni tartibga keltirish, kombinatsiyasi hamda mavjud yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashni taqozo etadi.

O'quvchilarning nostandart tafakkur tarzi va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o'quv jarayonida taqdim etilgan vazifa va topshiriqlarning xususiyatlarini aniqlashda refleksiv yondashuv asosida yo'naltirilganligi nostandart tafakkurning anglangan faoliyat turi ekanligini ko'rsatadi. Ta'limdagi o'quv jarayoni bilan bog'liq muammolarni aniqlash va vaziyatni baholashda suprasituatsion fikrlash o'quvchiga amaliy yordam beradi.

Tadqiqotchi M.M.Kashapov muammolarni aniqlashni suprasituatsion darajasi xususida so'z yuritib, pedagogik faoliyatning muhim shartlari bilan belgilanishi, o'qituvchi tomonidan yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarning sabablarini aniqlash va bartaraf etish usullari bilan bog'liq, deb tushuntiradi. Uning nuqtai nazaricha, "pedagogik muammoni hal qilishning suprasituatsion darajasi muayyan vaziyat darajasini boshlang'ich bosqichidan yuz beradi" [1, 414].

Ta'lim jarayonida fikrlashning suprasituatsion darajasi o'qituvchiga faoliyatni refleksiv amalga oshirish hamda tahlil qilishga imkon beradi. Bu jarayon esa pedagogik vaziyatni boshqarish, ta'lim oluvchiga zaruriy bilimlarni yetkazishda muqobil variantlarning yuzaga kelishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchi shaxsida nostandart tafakkur tarzini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari tavsiflovchi va aqliy faoliyat unumdorligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan nostandart tafakkur xususiyatiga tegishli bo'lgan tanqidiy fikrlash – bu aqliy faoliyat mahsuli bo'lib, ilgari surilgan mulohaza va qarashlarni har jihatdan asoslash imkonini beradi. Bu borada tadqiqotchi S.A.Rubashenkoning ilmiy qarashlari ahamiyatli bo'lib, u nostandart tafakkur jarayonida tanqidiy fikrlashni quyidagi xususiyatlariga e'tibor qaratadi[4]:

- tafakkur operatsiyalarining yuqori darajada mazmun va mantiqqa muvofiq asoslash;

- o'quvchi o'ziga berilgan yangi vazifa va topshiriqlarni boshqalar yordamisiz kreativlik asosida mustaqil bajarish;

- nostandart tafakkur jarayonida tanqidiy fikrning asosiy mazmun-mohiyatini maqsadlilik va muvofiqlik omillari bilan baholash;

- asoslilik tamoyiliga muvofiq, fikr yuritish tarzida izchillikni ta'minlash va nazorat qilish jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish.

Bizningcha, nostandart tafakkurning negizida shakllanadigan tanqidiy fikrlashning o'ziga xosligi shundaki, o'quvchi tomonidan fan va mavzuga oid ma'lumotlarni ajratish va loyihalash yuzasidan bilimlar majmuini yanada kengaytirish va uni shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qilishi o'quvchi ijtimoiy faollashuvini jadallashtiradi. Refleksiv omillarga muvofiq o'quvchilarni ijodiy ta'lim jarayoniga yo'naltirish va nostandart tafakkurni rivojlantirish, ularning ijodiy salohiyati samaradorligini yanada dolzarblashtirishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asosan biz nostandart tafakkurni tanqidiy fikrlash bilan bog'liq bo'lgan quyidagi refleksiv funktsiyalarini ajratib ko'rsatamiz:

- chiqarilgan hukmlarning mantiqiy to'g'riligi va keltirilayotgan dalillarni ishonchlilik darajasiga aniqlik kiritish;

- tanqidiy fikrlash jarayonida mulohazaga e'tibor qaratish va tahliliy yondashish hamda boshqalarning fikrlari bilan taqqoslab borish;

- berilayotgan bilimning kelib chiqish manbasini aniq keltirish va uning asoslanishini zaruriy omillar bilan tasdiqlash;

- uzatilayotgan bilimlarni tahlil qilish, ichida yashiringan ijod mexanizmlarini ochish hamda mantiqiy asosga tayangan xulosalarga kelish;

- vazifa va topshiriqlarni bajarish amaliyotida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishning muqobil variantlarini izlab topish.

Ushbu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, o'quvchi shaxsida faoliyat natijasiga nisbatan refleksiv munosabatni qaror toptirish hamda muammo va vaziyatli yo'nalishlarga nisbatan ijodiy izlanishni shakllantirish lozim bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsiga nisbatan yo'naltirilgan yondashuv anglangan faoliyat turi bo'lib, tanqidiy fikrlashning mahsuldorligi va salmog'ini yanada oshiradi. O'quv jarayoni bilan bog'liq topshiriq va vazifa yechimiga nisbatan o'quvchi tomonidan tanqidiy fikrlash ko'nikmasini takomillashtirish va refleksiv yondashuv malakasini oshirish ijodiy izlanishni samarasi o'laroq yangi manbalarning zamini bilib xizmat qiladi.

Tadqiqotchi A.V.Shvetsova tafakkur operatsiyalarining muhim belgilari samaradorlik, mantiqiylik, keng mulohazakorlik va tezkorlik ekanligini ta'kidlagan holda, tanqidiylik masalasiga e'tibor qaratib, uni bevosita nostandart tafakkur mahsuli

ekanligi hamda shaxs xususiyati sifatida xato va nomuvofiqliklarni aniqlash, o'rganilayotgan ob'ekt xususida turli nazariy qarashlarni ilgari surish, taxminlar bilan murojaat etish qobiliyati mahsuli[5], degan ilmiy mulohazani ilgari suradi.

A.V.Shvetsovaning fikrlari o'rinli. Ammo, bizningcha, tanqidiy tafakkur nostandart tafakkurning mahsuli emas, aksincha, nostandart tafakkur zamirida tanqidiy tafakkur yotadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, o'quvchilarda nostandart tafakkurni refleksiv omillar asosida qaror toptirish, nafaqat ularda tanqidiy fikrlash xususiyatini shakllantiradi, balki bugungi kun jamiyatining real ehtiyoji bo'lgan zamonaviy shaxsga qo'yilayotgan fazilat va malaka talablarini ham qaror toptirishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda ta'lim jarayonida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarda o'quvchilarni nostandart tafakkurini rivojlantirish va kreativlik qobiliyatini rag'batlantirish masalalariga o'tkir ijtimoiy muammo sifatida yondashishi taqozo etiladi. Bunda eng avvalo, individual faollik, pedagogik muloqotda ijodkorlik sifatlarini namoyon etishi muhimdir. Albatta bu jarayon, amaliy jihatdan olib qaraganda oddiy ko'rinishi tabbiydir. Biroq, pedagog ijtimoiy munosabatlarini o'z ichiga olgan ta'lim va tarbiyani tashkil etish, zamonaviy nuqtai nazardan ko'rib chiqish, qayta modifikatsiyalash, pedagogik ilg'or texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish hamda reflektiv omillarga muvofiqlashtirish masalalarini kasbiy faoliyatning tarkibiy qismiga aylantirishi zarur.

Biz bu borada quyidagi tavsiyalarni taklif qilamiz: pedagogik-psixologik ta'lim jarayonida refleksiya o'qituvchining individual kasbiy qobiliyatlari kontekstida ko'rib chiqilishi zarur; kasbiy va pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi tahliliy kompetentlikni namoyon etgan hola o'quvchi shaxsida shakllantirilish lozim bo'lgan nostandart tafakkur motivlarini rag'batlantirishi kerak; ta'limni tashkil etishda o'qituvchi refleksiv qobiliyatlarini kasbiy faoliyati mazmuni bilan bog'lashi maqsadga muvofiq.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Кашапов М.М. Психология педагогического мышления. – М.: -2000. - С.414.
2. Козлова Н.В., Щеглова М.С. Взаимосвязь критического мышления и психологического здоровья студентов высшей школы//Сибирский психологический журнал 2013 г. № 50
3. Луцкович В.В. Специфика взаимосвязи типов мышления и субъективных особенностей понимания//Экспериментальная психология, 2013, том 6, № 3. – С.54
4. Рубашенко С.А. Развитие критичности мышления будущих педагогов средствами акмеологических технологий//Научный поиск. 2013. №4. С. 19-21.
5. Швецова А.В. Критичность мышления как инструмент гендерного анализа// Педагогическое образование в России. 2015. № 9. С. 72- 76.
6. Ходжамкулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластерининг илмий-назарий асослари / пед. Фан.док дисс. (Doktor of Science). Чирчик, 2020. –Б.180.
7. Rahmonova, G. S. (2022). Theoretical and methodological fundamentals of developing non-standard thinking in students. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (108), 565-572.
8. Salaydinovna, R. G. (2022). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF NON-STANDARD WAY OF THINKING IN STUDENTS. *European science review*, (3-4), 17-20.
9. G‘affarova G.G‘., Yo‘ldoshev A. (2022). Klaster tushunchasining falsafiy mohiyati // International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: problems and solutions”. – Angliya, 28 mart,-P.322-328.
10. Туганова Л. (2022). Правовые основы гендерного равенства в обновляемом Узбекистане // Инновации в технологиях и образовании: XV Международная научная конференция. – Болгария, март, –С.16-17.
11. Berkinov O.T. (2022). Changes in media culture and human thinking // Инновации в технологиях и образовании: XV Международная научная конференция. – Болгария, март, –С.16-17.
12. Yo‘ldoshev A. (2022). Ta‘limga e’tibor - kelajakka e’tibor // Barqaror rivojlanishda uzluksiz ta‘lim: muammo va yechimlar: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy ishlar to‘plami. – Toshkent, 340-341 betlar.
13. Berkinov O.T. (2022). Ijtimoiy tarmoq: yoshlar va “kelajak” // NamDU ilmiy Axborotnomasi, 3-son, -B.181-187.

14. Rahmonova G.S. Nostandart tafakkur muammosining o'rganilish tarixi: etyudlar // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2022. 3-son, -B.749-753.
15. Raxmonova G.S. Kreativ va nostandart tafakkur muammosining pedagogik tadqiqotlarda o'rganilishi // Tafakkur ziyosi, 2022. 2-son,
16. Raxmonova G.S. Kreatif va ijodiy tafakkur muammosining xorijiy tadqiqotlarda o'rganilishi // O'zMU Xabarlar, 2022. № 1-2, -B153-155.
17. Rahmonova G.S. Yoshlarni nostandart fikrlashga o'rgatish zarurati // Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences: a collection scientific works of the International scientific conference (28-29 December, 2021). ISSUE 8, – 334 p.
18. Raxmonova G.S. (2022). Yoshlarni nostandart fikrlashga o'rgatish: zarurat va ehtiyoj // Academic Research in Educational Sciences, 3 (1), -B.150-158.
19. Raxmonova G.S. (2022). Nostandart fikrlashning o'ziga xos xususiyatlari // International scientific and practical conference "Modern psychology and pedagogy: problems and solutions". – Angliya, -R.733-736.
20. Raxmonova G.S. (2020). The significance of spiritual and social image of the modern leader for the development of society // *Academicia* An international multidisciplinary research journal, ISSN: 2249-7137 (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal), Vol.10, Issue 10.
13. Raxmonova G.S. (2021). Ta'lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarishda innovatsion ta'lim bosqichlari // Scientific Journal of "Scientific Progress", ISSN: 2181-1601 Vol.1, Issue 6, April